

KIBERMAKONDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQLARI HIMOYASI

Ummatkulov Sherali Raimqul o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

*Intellectual mulk va axborot texnologiyalari huquqi
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi intellektual mulk huquqlarini himoya qilish sohasida yangi muammo va tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. An'anaviy huquqiy mexanizmlar kibermakonning o'ziga xos chegarasiz va tez o'zgaruvchan tabiati bilan to'laqonli kurasha olmayapti. Ushbu maqolada kibermakonda intellektual mulk huquqlarining buzilishiga olib kelayotgan muammolar, ularni oldini olish, shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida ushbu huquqlarni himoya qilish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: intellektual mulk, kibermakon, mualliflik huquqi, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, innovatsion himoya, raqamli kontent.

PROTECTION OF INTELLECTUAL PROPERTY RIGHTS IN CYBERSPACE

Abstract. The dynamic growth of cyberspace presents new challenges in protecting intellectual property rights. Content generated via the internet, digital platforms, and AI spreads rapidly, while its legal status such as copyright or trademarks is often neglected. Traditional legal tools are insufficient against the borderless and fast-evolving nature of cyberspace. This article examines key issues of IP infringement online, and explores digital technologies for effective rights protection.

Keywords: intellectual property, digital environment, cyberspace, copyright, artificial intelligence, cybersecurity, innovative protection, digital content.

ЗАЩИТА ПРАВ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ

Аннотация. Быстрое развитие цифровых технологий приводит к возникновению новых проблем и угроз в сфере защиты прав интеллектуальной собственности. Традиционные правовые механизмы зачастую не успевают адаптироваться к трансграничной и стремительно изменяющейся природе киберпространства. В статье анализируются причины нарушений прав интеллектуальной собственности в цифровой среде, эффективность

существующих правовых механизмов, а также возможности применения цифровых технологий для их защиты.

Ключевые слова: интеллектуальная собственность, цифровая среда, киберпространство, авторское право, искусственный интеллект, кибербезопасность, инновационная защита, цифровой контент.

Raqamli texnologiyalar va internetning jadal rivojlanishi intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquqbuzarliklar ko‘lamini misli ko‘rilmagan darajada oshirdi. Bugungi kunda mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlar, brendlar va kashfiyotlar bir zumda dunyoning istalgan nuqtasida tarqalishi va noqonuniy foydalanilishi mumkin. Masalan, 2024-yilda turli pirat veb-saytlarga kirishlar soni 216 milliard martadan oshdi [1]. Global kinofilm industriyasi har yili 40–97 milliard AQSh dollari miqdorida daromadni aynan onlayn piratlik tufayli boy bermoqda [2]. Dunyoda ishlatilayotgan dasturiy ta‘minotning qariyb 37 foizi litsenziyasiz bo‘lib, buning tijorat qiymati yiliga 46 milliard AQSh dollaridan ziyod zarar keltiradi [3]. Bu raqamlar kibermakonda intellektual mulk huquqlari himoyasi naqadar dolzarb masala ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, piratlikning salbiy oqibatlari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-ma‘naviy jihatdan ham seziladi.

Intellektual mulk huquqlari mamlakatlarning innovatsion rivojlanishi va ijodkorlarning manfaatlarini himoya qilish uchun muhim hisoblanadi. Agar intellektual mulk himoyasi ta‘minlanmasa, muallif va ixtirochilar o‘z mehnatlaridan yetarli daromad ololmaydi, bu esa jamiyatda intellektual mehnatga hurmat yo‘qolib, yangi asarlar yaratishga bo‘lgan rag‘bat pasayishiga olib keladi. Shu bois, dunyoning ko‘plab davlatlari intellektual mulkni muhofaza qilish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratmoqda.

Kibermakonda intellektual mulk himoyasining o‘ziga xos murakkabligi shundaki, raqamli axborotning nusxasini cheksiz ko‘paytirish va tarqatish juda oson. Internetda huquqbuzarlar shaxsini yashirish (anonimlik) imkoniyati yuqori bo‘lib, kontentni noqonuniy tarqatish global chegaralarni kesib o‘tadi. An‘anaviy huquqiy choralarni qo‘llashda hududiy yurisdiksiya muammolari kelib chiqadi – ya‘ni huquqbuzar bir mamlakatda joylashib, boshqa mamlakatdagi muallif huquqlarini buzishi mumkin. Bunday sharoitda intellektual mulk huquqlarini samarali himoya qilish uchun xalqaro hamkorlik, zamonaviy texnologik yechimlar va moslashuvchan qonunchilik zarur bo‘lmoqda.

Kibermakonda intellektual mulk huquqlariga tahdidlar: Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlari. Raqamli muhitda eng ko‘p huquqbuzarliklarga uchrayotgan intellektual mulk obyektlari – bu mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlardir. Jumladan, musiqa, kino, dasturiy ta‘minot, elektron kitoblar kabi asarlar internet orqali keng miqyosda ruxsatsiz tarqatilmoqda. Turli torrent tarmoqlari, pirat

(soxta, noqonuniylik asosida faoliyat yurituvchi) saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali mualliflik huquqi bilan himoyalangan kontent bepul (*noqonuniy*) ulashilayotgani kuzatiladi. Yuqorida qayd etilganidek, har yili yuz milliardlab piratlikka oid yuklab olishlar va ko'rishlar sodir bo'lmoqda [1]. Natijada, mualliflar va kontent ishlab chiqaruvchilar katta iqtisodiy zarar ko'rmoqda va qonuniy litsenziyalangan bozor ulushi qisqarib ketmoqda [2].

Tovar belgilari. Kibermakonda brend egalari uchun yana bir jiddiy muammo – bu tovar belgilari huquqlarining buzilishi va kontrafakt mahsulotlarning onlayn savdosidir. Elektron savdo platformalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali mashhur brendlarning soxta mahsulotlari erkin sotilmoqda. Masalan, dunyoning turli hududlarida iste'molchilar onlayn do'konlardan taniqli markalarning arzon, biroq qalbaki nusxalarini xarid qilishlari mumkin. Bu esa nafaqat brend egalari daromadlarini kamaytiradi, balki iste'molchilarni sifat va xavfsizlik risklariga duchor etadi. Shuningdek, domen nomlarini “qaroqchilik yo'li bilan” egallab olish (*cybersquatting*) holatlari ham uchrab, taniqli tovar belgilari nomlari bilan o'xshash domenlar ro'yxatdan o'tkazilib, noqonuniy foydalanilmoqda. Bunday holatlar brendlarning obro'siga putur yetkazishi yoki ularni o'z domenidan mahrum etishi mumkin.

Patentlar va texnologik kashfiyotlar. Patent bilan himoyalangan ixtirolar ham raqamli davrda muayyan xatarlar ostida qolmoqda. Internet orqali patentlangan texnologiyalar va ixtirolarga doir ma'lumotlar tarqalib, ularni ruxsatsiz qo'llash yoki nusxalash osonlashdi. Ayniqsa, dasturiy ta'minot va raqamli texnologiyalar sohasida patentlangan yechimlarning noqonuniy klonlari yaratilishi mumkin. Bunday patent buzilishi holatlarini aniqlash qiyinligi sabab, ko'plab huquqbuzarlar jazosiz qolmoqda.

Boshqa intellektual mulk turlari. Shuningdek, sanoat namunalari (dizaynlar), ma'lumotlar bazalari va hatto tijorat sirlari ham kibermakonda muammolarga duch kelmoqda. Sanoat namunalari rasmlari internetda tarqalib, ularni ruxsatsiz ko'chirib tayyorlanishi kuzatilmoqda. Korxonalarning tijorat sirlari va raqobatga oid ma'lumotlari ham kiberhujumlar orqali o'g'irlanib, noqonuniy tarqatilishi.

Statistik o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, internet tarmog'i orqali mualliflik va turdosh huquqlarni buzish bugungi kunda eng keng tarqalgan intellektual mulkka oid huquqbuzarlikdir. Ayniqsa nashriyot mahsulotlari, televideniya kontenti, ijtimoiy tarmoqlardagi elektron materiallar bilan bog'liq sohalarda mualliflik huquqi buzilishlari juda ko'p uchraydi[10]. Shu bilan birga, tovar belgilari va brendlar ham onlayn kontrafakt mahsulotlar va domen muammolari katta zarar ko'rmoqda. Patentlar va boshqa sohalar nisbatan kamroq zarar ko'rsa-da, raqamli muhitda ular uchun ham yangi xatarlar paydo bo'lmoqda.

Xalqaro tajriba va xalqaro-huquqiy me'yorlar. Intellektual mulk huquqlarini Kibermakonda himoya qilish borasida xalqaro hamjamiyat bir qator huquqiy

mexanizmlar va tajribalarni shakllantirgan. Eng avvalo, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning xalqaro asosiy hujjati bo'lgan **Bern konvensiyasi (1886)** raqamli davrda ham mualliflarning asosiy huquqlarini kafolatlashga xizmat qilmoqda. Biroq internetning rivojlanishi bilan yuzaga kelgan yangi tahdidlarga javoban 1996-yilda Jenevada **Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO)** doirasida ikki muhim bitim – Mualliflik huquqi to'g'risidagi WIPO shartnomasi (**WCT – WIPO Copyright Treaty**) va Ijrolar hamda fonogrammalar to'g'risidagi WIPO shartnomasi (**WPPT – The WIPO Performances and Phonograms Treaty**) imzolandi. Ushbu “Internet shartnomalari” (**WIPO Internet Treaties**)da raqamli muhitda mualliflik huquqlarini himoyalashga doir qo'shimcha qoidalarni belgilandi. Jumladan, raqamli asarlarni umumfoydalanishga (onlayn) taqdim etish huquqi muallifga tegishli ekani, texnologik himoya vositalarini (**DRM – Digital Rights Management – raqamli asarlarni (masalan, filmlar, musiqa, elektron kitoblar) noqonuniy nusxa ko'chirish, tarqatish yoki ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish uchun ishlatiladigan texnologiya**) chetlab o'tishni taqiqlash kabi normalar kiritildi.

Xalqaro darajada ko'plab davlatlar milliy qonunchiligini ushbu yangi talablar bilan muvofiqlashtirdi. Masalan, AQSh 1998-yilda **Digital Millennium Copyright Act (DMCA)** deb nomlangan qonunni qabul qilib, raqamli davrdagi mualliflik huquqi muhofazasining asosi hisoblanadi. DMCA internet-provayderlar va platformalar uchun **Safe Harbor (javobgarlikdan himoya mexanizmi)** mexanizmini joriy etdi – ya'ni, agar platforma foydalanuvchi tomonidan mualliflik huquqini buzuvchi kontent joylashtirganlik haqida ogohlantirish (*notice*) olsa va uni zudlik bilan o'chirib tashlasa (*takedown*), u holda platforma javobgarlikka tortilmaydi. Ya'ni muallif faqat kontentni joylashtirgan foydalanuvchiga da'vo qiladi, platformaga emas. Bugungi kunda “ogohlantir va o'chir” tartibi ko'plab davlatlarning qonunchiligida qo'llanilmoqda. DMCA shuningdek, mualliflik himoyasini chetlab o'tuvchi vositalarni (*masalan, DVD disklarning himoya kodini buzuvchi dasturlarni*) tarqatishni ham taqiqlagan.

Yevropa Ittifoqi davlatlari ham raqamli muhitda mualliflik huquqini mustahkamlash uchun yangilangan qonunchilik qabul qilgan. 2019-yilda qabul qilingan “**Yevropa Ittifoqida raqamli bozor uchun mualliflik huquqi**” direktivasi (**EU Copyright Directive - Directive (EU) 2019/790 on Copyright and Related Rights in the Digital Single Market**) shular jumlasidandir. Internetda, ayniqsa YouTube, Facebook, TikTok kabi platformalarda foydalanuvchilar har kuni minglab videolar, musiqalar, matnlar va boshqa asarlarni joylashtiradi. Ko'pincha bu asarlar mualliflik huquqi bilan himoyalangan bo'ladi. Ammo bu kontentlar muallifdan ruxsatsiz joylashtirilgan bo'lsa ham, platformalar bunga befarq bo'lib kelgan. Shu sababli Yevropa Ittifoqi mualliflarning raqamli daromadini himoya qilish, mualliflik huquqini buzishni kamaytirish, platformalarning mas'uliyatini oshirish uchun mazkur direktivani joriy etdi. Direktivaning 17-moddasiga asosan kontent joylashtiruvchi

platformalarga (masalan, YouTube kabi servislarga) mualliflik huquqini buzuvchi materiallarning joylashtirilmasligini ta'minlash majburiyati yuklandi. Bu amalda platformalarning avtomatlashtirilgan filtrlar va kontentni aniqlash texnologiyalarini joriy etishini talab qiladi. Endi foydalanuvchilar joylashtirgan kontentda mualliflik huquqi buzilgan bo'lsa, platformaning o'zi ham javobgar bo'ladi (DMCA dagi "xavfsiz gavan" mexanizmiga o'xshamagan holda).

Platformalar mualliflikka zid kontent joylashtirilmasligini ta'minlashi kerak. Ya'ni ular avtomatik filtrlar, kontentni tanib olish tizimlari (Content ID) va boshqa texnologik choralarni qo'llashi kerak. Bundan tashqari mualliflar platforma bilan daromad bo'yicha kelishish huquqiga ega bo'ladi. Misol uchun, agar YouTube foydalanuvchi yuklagan video orqali reklama daromadi olsa, muallif ham ulushga ega bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, ko'plab mamlakatlar Kibermakonda intellektual mulkni muhofaza qilish uchun sud va ma'muriy choralarni kuchaytirmoqda. Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya kabi davlatlarda huquq egalarining da'vosi bilan sudlar yirik pirat saytlariga kirishni butunlay bloklash to'g'risida qarorlar chiqarmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada mahalliy sud qarori bilan **"The Pirate Bay"** (*The Pirate Bay — bu butun dunyoda mashhur bo'lgan torrent fayllar almashish sayti. Bu sayt orqali foydalanuvchilar filmlar, musiqalar, dasturlar, kitoblar kabi asarlarni noqonuniy ravishda (mualliflik huquqisiz) yuklab olish yoki tarqatish imkoniga ega bo'lgan. Bu kabi saytlar mualliflik huquqlarini buzuvchi kontentlar markazi hisoblanadi*) kabi torrent saytlariga provayderlar tomonidan doimiy to'siq qo'yilgan. Bunda Buyuk Britaniyada bu kabi sud qarorlari **Copyright, Designs and Patents Act** hamda **Digital Economy Act** asosida chiqariladi. Agar biror sayt mualliflik huquqini buzuvchi kontentlarni tarqatish uchun vosita bo'lsa, va bu huquqbuzarlik katta miqyosda va doimiy tarzda sodir bo'lsa, sud internet-provayderlarga bu saytlarni bloklash bo'yicha majburiyat yuklashi mumkin.

Shu o'rinda ayrim davlatlarning qiziqarli tashabbuslarini ham tilga olish mumkin. Masalan, Rossiyada 2013-yilda qabul qilingan "antipirat" qonuni¹ dastlab kinofilmlarni noqonuniy tarqatishga qarshi qaratilgan bo'lsa, keyinchalik qamrovi kengaytirilib, barcha turdagi mualliflik asarlarini o'z ichiga oldi. 2018-yilda esa yirik internet kompaniyalari (*Yandex, Mail.ru va boshqalar*) hamda huquq egalari o'rtasida ixtiyoriy kelishuv – **"antipiratlik memorandum"** imzolanib, unga ko'ra qidiruv tizimlari o'z natijalaridan noqonuniy kontentga olib boruvchi havolalarni o'chirib tashlashga kelishib oldilar. Natijada, bir necha oy ichida qidiruv tizimlaridan yuz minglab pirat saytlarga havolalar chiqarib tashlandi. Bu foydalanuvchilarning pirat

¹ Федеральный закон от 2 июля 2013 г. N 187-ФЗ "О внесении изменений в отдельные законодательные акты Российской Федерации по вопросам защиты интеллектуальных прав в информационно-телекоммуникационных сетях" - https://base.garant.ru/70405630/?utm_source

kontentga tasodifiy duch kelish ehtimolini kamaytirib, qonuniy platformalarga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Yirik rivojlanayotgan davlatlarda onlayn piratlikka qarshi kurashda turlicha natijalar kuzatilmoqda. Masalan, Xitoyda so'nggi yillarda intellektual mulk sohasida qonunchilik kuchaytirilgan bo'lsa-da, hanuz onlayn piratlik va kontrafakt mahsulotlar savdosi katta muammo bo'lib qolmoqda. Hindistonda onlayn mualliflik huquqi buzilishi keng tarqalgan bo'lib, AQSh Savdo vakilligi ma'lumotlariga ko'ra, u yerda internet orqali piratlik darajasi juda yuqori va mualliflik huquqi sohasidagi xalqaro internet bitimlari to'liq tatbiq etilmagani tanqid qilinadi [4]. Janubi-Sharqiy Osiyodagi ba'zi davlatlar ham piratlik markaziga aylangan. Bunda Vetnam davlati dunyoda eng mashhur pirat saytlarga mezbonlik qiluvchi davlatlardan biri ekani, garchi qonunlarda mualliflik huquqini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan bo'lsa-da, amalda ijro etilish juda sust ekani qayd etilgan [4].

Xalqaro darajada intellektual mulk huquqlarini muhofaza qilish bo'yicha hamkorlik mexanizmlari ham ishlab chiqilgan. Jumladan, Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti doirasida davlatlar o'rtasida tajriba almashish, texnik yordam ko'rsatish ishlari olib boriladi. Interpol va Jahon bojxona tashkiloti kontrafakt tovarlar savdosiga qarshi qo'shma amaliyotlar o'tkazib, chegara orqali noqonuniy mahsulot tashilishini bartaraf etishga harakat qilmoqda. Shuningdek, AQSh, Yevropa Ittifoqi kabi yirik bozorlarda intellektual mulkni himoya qilish darajasi mamlakatlar bilan savdo aloqalarida muhokama etilib, maxsus kuzatuv ro'yxatlari yuritiladi. Misol tariqasida, AQSh har yili **“Special 301”** hisobotini e'lon qilib, unda intellektual mulkni himoya qilish borasida muammolari bor savdo hamkorlarini **“Kuzatuv ro'yxati” (Watch List)** ga kiritadi.² Bu intellektual mulk sohasida savdo sheriklarining himoya darajasini baholash va zarurat bo'lganda ogohlantirish sifatida xizmat qiluvchi xalqaro monitoring mexanizmidir va bu mamlakatlarni o'z qonunchiligi va ijrosini takomillashtirishga undovchi omillardan biridir.

O'zbekiston intellektual mulk sohasida so'nggi yillarda izchil islohotlar o'tkazib, raqamli muhitda mualliflik huquqlarini himoya qilishni kuchaytirishga intilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi³ qabul qilinib, unda raqamli resurslar orqali mualliflik huquqlarini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini takomillashtirish belgilangan. Shu bilan birga, mamlakat ichida hanuz hal etilishi lozim bo'lgan muammolar mavjud. Avvalo, keng jamoatchilik o'rtasida mualliflik huquqlariga rioya qilish madaniyatini shakllantirish zarurati bor. Hozirda ko'plab foydalanuvchilar internetdan musiqa, kino, dasturlarni noqonuniy yuklab olish yoki ko'rishga odatlangan. Bunda mualliflik

² [https://ustr.gov/sites/default/files/files/Issue_Areas/Enforcement/2025%20Special%20301%20Report%20\(final\).pdf?utm_source](https://ustr.gov/sites/default/files/files/Issue_Areas/Enforcement/2025%20Special%20301%20Report%20(final).pdf?utm_source)

³ <https://lex.uz/docs/-5987120>

huquqi egalarining o'z huquqlarini talab qilish faolligini oshirish va ularni himoya qilish mexanizmlaridan foydalanishga undash lozim. Yana bir muammo – internetda xorijiy pirat saytlar orqali kontentga erishish imkoniyatidir. O'zbekiston hududida ayrim pirat manbalar bloklangan bo'lsa-da, VPN va boshqa usullar orqali ularga kirish oson bo'lib qolmoqda. Bu esa yangi qonunchilik choralarning samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, kibermakonda intellektual mulk huquqlarini samarali himoya qilish uchun qonunchilikni doimiy ravishda yangi texnologiyalarga moslash, transchegaraviy hamkorlikni kuchaytirish va texnik yechimlarni (kontent filtrlash, raqamli huquqlarni boshqarish tizimlari va hokazo) joriy etish zarur.

Internetdagi qalbaki kontentning katta qismi xorijiy saytlar hissasiga to'g'ri keladi. Shu bois, transchegaraviy hamkorliksiz ularga qarshi kurashish mushkul. O'zbekiston Interpol va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda yirik pirat tarmoqlarni fosh etish bo'yicha operatsiyalarda ishtirok etishi lozim. Masalan, xalqaro miqyosda mashhur bo'lgan ayrim pirat platformalarning administratori O'zbekiston hududida bo'lsa yoki aksincha, bizning huquqbuzarlar xorijiy kontentni tarqatayotgan bo'lsa, boshqa davlatlar huquqni muhofaza organlari bilan ma'lumot almashish va birgalikda choralar ko'rish talab etiladi. JSTga a'zo bo'lish jarayonida ham O'zbekiston TRIPS kelishuviga to'la rioya qilish majburiyatini oladi – bu esa xalqaro standartlar joriy etilishi va xorijiy davlatlar bilan intellectual mulk sohasida o'zaro yordam kuchayishini anglatadi.

Shuningdek, kibermakonda huquqbuzarlikning oldini olishda texnik choralar katta samara beradi. Platformalar va mahalliy internet-provayderlar uchun mualliflik huquqini avtomatik nazorat qilish tizimlarini joriy etish muhim. Masalan, YouTube singari kontent almashish platformalarida Content ID kabi tizimlar mualliflarga o'z asarlarini ro'yxatdan o'tkazib, ularning nusxalari chiqsa darhol aniqlash imkonini beradi. O'zbekiston ham mahalliy media platformalarda shunday identifikatsiya tizimlarini tatbiq etishni rag'batlantirishi kerak. Platformalarga noqonuniy kontent uchun javobgarlik yuklash, ular uchun texnik filtrlarni yo'lga qo'yish dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, huquq egalari va davlat organlari huquqbuzar saytlarni aniqlash va bloklash uchun sun'iy intellektga asoslangan monitoring dasturlaridan foydalanishi maqsadga muvofiq. Yaqin yillarda sun'iy intellekt asosida ishlovchi monitoring dasturlari pirat kontentni aniq belgilab, inson aralashuvisiz uni tarmoqdan olib tashlash ishlarini soddalashtirishi kutilmoqda.

Bundan tashqari raqamli texnologiyalar juda tez rivojlanmoqda, yangi huquqbuzarlik sxemalari paydo bo'lmoqda. Masalan, so'nggi yillarda sun'iy intellekt yordamida yaratilgan kontent, NFT raqamli aktivlari kabi yangi tushunchalar intellektual mulk sohasida yangi savollarni tug'dirmoqda. Mualliflik huquqi

qonunchiligini ushbu yangiliklarga moslashtirib borish zarur. Yaqin kelajakda O'zbekiston mualliflik huquqi qonuniga sun'iy intellekt generatsiyalagan asarlar muallifligi, ma'lumotlar bazalarini himoya qilish kabi masalalarda aniqlik kiritishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, raqamli bozorda *fair use* (adolatlilik tamoyili) va kontentdan qonuniy foydalanuvchi huquqlarini ham unutmasdan, muvozanatli yondashuvni saqlash kerak bo'ladi. Jahon amaliyotida sun'iy intellekt yordamida yaratilgan asarlarning mualliflik huquqi maqomi borasida qizg'in bahslar ketmoqda. O'zbekiston ham bu yo'nalishdagi ilg'or tajribalarni inobatga olib, qonunchiligini boyitib borishi talab etiladi.

Monitoring va hisobdorlik masalasiga alohida e'tibor qaratish darkor. Vakolatli idoralar har yili sohadagi holat bo'yicha hisobot e'lon qilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda qancha huquqbuzarlik holatlari aniqlangani, qancha da'vo sudga oshirilgani, nechta veb-sayt bloklangani yoki jarimaga tortilgani kabi ma'lumotlar ochiq berib borilsa, jamoatchilikda tushuncha va ishonch oshadi.

Xulosa yakunida ta'kidlash joizki, kibermakonda intellektual mulk huquqlarini himoya qilish – zamon talabi va davr muammosi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida biror millatning intellektual salohiyati va innovatsion rivojlanishi aynan intellektual mulk huquqlarining qanchalik kafolatlanganiga chambarchas bog'liq. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, raqamli makondagi huquqbuzarliklar global miqyosda ulkan talafotlar keltirmoqda. Shu bois, dunyo davlatlari bu borada jiddiy choralar ko'rmoqda – xalqaro konvensiyalar imzolaniib, milliy qonunchiliklar moslashtirilmoqda, texnik vositalar joriy etilmoqda.

O'zbekiston ham ushbu jarayonlardan chetda qolmay, so'nggi yillarda intellektual mulkni muhofaza qilish tizimini isloh qilmoqda. Shu bilan birga, oldinda hali ko'p vazifalar turibdi. Raqamli texnologiyalar taraqqiy etib borgan sayin, huquqbuzarlar ham yangi usullarga o'tmoqda. Demak, qonunchilik va ijro mexanizmlari ham doimiy ravishda yangilanib, zamonga moslashib borishi lozim. Sud-huquq amaliyoti va mutaxassislar tayyorgarligini yaxshilash, jamoatchilik ongini oshirish orqali intellektual mulkni hurmat qilish madaniyatini shakllantirish bugungi kun talabidir. Qonuniy raqamli kontent bozorini rivojlantirish va innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali esa O'zbekiston o'zining intellektual salohiyatidan to'liq foydalana oladi. Zero, intellektual mulk huquqlarining ishonchli himoyasi – yurtimiz ijodkorlari va olimlarining erkin ijod qilishi, ularning mehnati samarasidan munosib daromad olishi va milliy boylikka aylanishining asosiy kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Intellektual mulk. Darslik. Mas'ul muharrirlar: yu.f.d., prof., O.Oqyulov, yu.f.f.d. (Phd), dotsent N.E.Gafurova//Mualliflar jamoasi: - T.: TDYU nashriyoti, 2019 – 588 bet.

2. MUSO (Music Usage Survey Organization), *2024 Global Music Piracy Statistics Report*, 2024.
3. UNCTAD, *Creative Economy Outlook 2024*, United Nations Conference on Trade and Development, 2024.
4. Business Software Alliance (BSA), *Software Piracy Statistics – 2025 Outlook*, BSA Global Software Survey, 2025.
5. U.S. Trade Representative, *2024 Special 301 Report*, Office of the United States Trade Representative (USTR), 2024.
6. Azizov & Partners, *Legal Protection of Intellectual Property. Part 2*, 25 March 2024.
7. Aripov, D., “Uzbekistan Introduces Statutory Compensation Amounts for IPR Infringement,” *American Bar Association (ABA)*, 2 June 2025.
8. Settle Advisory, “A New Era of Intellectual Property Protection in Uzbekistan: Compensation Instead of Damages,” 12 September 2024.
9. Jalolova, S., “Uzbekistan Strengthens Intellectual Property Protection,” *The Times of Central Asia*, 20 February 2025.
10. Azizov & Partners, *Analytical Review: IP Enforcement in Uzbekistan 2021–2023*, 2023.
11. Isayeva, M., “The Role of Streaming Services in Digital Content Consumption: Insights from Uzbekistan,” *Science and Innovation*, February 2025.
12. Gordon, W. J., & Jaffe, A. B. (2006). Intellectual property protection in cyberspace. *Science*, 313(5786), 480-482.
13. Agrawal, A. (2008). Intellectual property rights in cyberspace: Law and society. *Stanford Social Innovation Review*, 6(2), 40-45.
14. <https://www.statista.com/search/?q=IP+on+cyberspace+2025&p=1>
15. <https://iamip.com/ip-trends-in-2025-what-to-expect-and-how-to-prepare/>